

Ilmiy ishlar

4-6 noyabr kunlari TIQXMMI ning "Menejment" kafedrası o'qituvchilari Durmanov A., Tulaboev A., Li M., Maxsumxanova A., Saidmurodzoda M., hamda 30 nafardan ortiq Kanada, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, J.Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Chexiya Respublikasi, Litviya, Serbiya, Italiya va Bolgariya davlatlarining professor-o'qituvchilari, universitet talabalari, yurtimizda AKT sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bo'lib o'tgan "Informatika va kommunikatsion texnologiyalar 2019" (ICISCT 2019) nomli xalqaro ilmiy-texnik anjumanida ishtirok etishdi. Ushbu konferentsiya materiallari SCOPUS ilmiy ma'lumotlar bazasida indekslanadi.